

SUBSTANTIVATSIYANING NAZARIY ASOSLARINING TILLARARO ISTIQBOLI

G'afforova Nigora Abdunosirovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

Email: nigoratohtaboyeva@gmail.com

Tel: +998882381288

Tg: @Nigopa12

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi substantivatsiya hodisasining nazariy asoslari va uning turli tillarda namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Substantivatsiya jarayonining grammatik va semantik xususiyatlari hamda ularning tillararo o'xshash va farqli jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada substantivatsiya orqali yangi leksik birliklar shakllanishi, ularning kommunikativ funksiyalari va tarjima jarayonidagi o'rni yoritiladi. Tillararo qiyosiy tahlil orqali substantivatsiya hodisasining umumiylik va o'ziga xosliklarini aniqlashga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: substantivatsiya, grammatik jarayon, semantik o'zgarish, tillararo tahlil, leksik birlik, sifatlar, fe'llar.

THE CROSS-LINGUISTIC PROSPECTS OF THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF SUBSTANTIVIZATION

Abstract: This thesis explores the theoretical foundations of substantivation and its manifestations across different languages. It analyzes the grammatical and semantic features of the substantivation process, highlighting both cross-linguistic similarities and distinctions. The study also examines how substantivation contributes to the creation of new lexical units, their communicative functions, and their relevance in translation. A comparative linguistic approach is employed to

identify universal and language-specific aspects of substantivation.

Keywords: *substantivation, grammatical process, semantic shift, cross-linguistic analysis, lexical unit*

МЕЖЪЯЗЫКОВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ СУБСТАНТИВАЦИИ

Аннотация: *В данной тезисе анализируются теоретические основы субстантивации и её проявления в различных языках. Анализируются грамматические и семантические аспекты процесса субстантивации, а также межъязыковые сходства и различия этого явления. Особое внимание уделяется роли субстантивации в формировании новых лексических единиц, их коммуникативным функциям и значению в процессе перевода. Сопоставительный анализ позволяет выявить как универсальные, так и специфические черты субстантивации в разных языках.*

Ключевые слова: *субстантивация, грамматический процесс, семантические изменения, межъязыковой анализ, лексическая единица*

KIRISH

Hozirgi davrda tilshunoslik sohasiga qaratilayotgan katta e'tibor tilshunoslik tadqiqotlarining tillararo yo'nalishlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ayniqsa, O'zbek va ingliz tillarida yuzaga keladigan tilshunoslik hodisalarini qiyosiy o'rganish zarurati oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, substantivatsiya jarayoni tilshunoslikda alohida o'ringa ega bo'lib, uning nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlari izchil va chuqur tahlil qilinishi lozim.

Ushbu tezisning asosiy maqsadi — substantivatsiyaning nazariy asoslarini keng qamrovda tahlil qilish, uni xalqaro tilshunoslik sohasida mavjud bo'lgan turli guruhlar va kategoriyalarga ajratish hamda uning tillararo ta'sir va munosabatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, tezisda substantivatsiya jarayonining tillararo o'zaro ta'sirining mexanizmlari va xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi, bu esa

tilshunoslikda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga hamda til o'rganish va o'qitishda samarali vositalarni yaratishga yordam beradi.

Asosiy qism

Substantivatsiya – bu tilshunoslikda muhim tushunchalardan biri bo'lib, u so'zlarning leksik-grammatik toifasini o'zgartirish, ya'ni boshqa so'z turkumiga mansub birliklarning ot (substantiv) sifatida ishlatilish jarayonini anglatadi. Misol uchun, o'zbek tilida sifatdan otga o'tish jarayoni ko'p uchraydi: *“bilmaganni so'rab o'rgangan olim”, “orlanib so'ramagan o'ziga zolim”* kabi iboralar substantivatsiya jarayonining amaliy namunasidir.¹ Yuqoridagi misolda sifatdoshni otlashish jarayonida otlarga xos sintaktik vazifa bajarganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon boshqa tillarda ham o'xshash mexanizmlar bilan amalga oshadi, bu esa tillararo taqqoslash uchun asos bo'ladi.

Substantivatsiya jarayoni dunyo tilshunosligida M.Koptjevskaja-Tamm², Elena Filimova³, Ivan A.Sag⁴, R.E.Asher⁵, Anna Wierzbicka⁶ kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan va bu imiy tadqiqotlar substantivatsiya muammolarini hal qilish va mavzu ko'lamini kengroq yoritish uchun kerakli manba sifatida xizmat qiladi.

Tillararo istiqbolda substantivatsiya tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Turli tillarda bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularni taqqoslash tilning umumiy strukturasini va funksiyalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan, hind-evropa tillarida flektiv qo'shimchalar orqali, turkiy tillarda esa suffikslar orqali substantivatsiya amalga oshadi.⁷ Bu tillararo farqlar tilning ruhiy-ijtimoiy tabiati va uning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi.

Xulosa

Substantivatsiya til ichidagi fleksibilnikni oshiradi va kommunikativ

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Otlashuv> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

² Dr. Maria Koptjevskaja-Tamm “Nominalizations”. Cambridge university press. Routledge 1993 110p

³ Elena Filimova “Substantivation” John Benjamins Publishing Company press.2005 15p

⁴ Ivan A.Sag “Syntactic theory:A formal introduction” Stanford university press,1997

⁵ R.E.Asher “Syntax and Morphology” Cambridge university press, 1973

⁶ Anna Wierzbicka “Semantic primitives” Publishing company press 2009

⁷ https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_3_son_2025_2.pdf p-120

samarali uslublarni yaratadi. Turli tillardagi tadqiqotlar tilshunoslik nazariyasini boyitadi va tillararo metodologik integratsiyaga xizmat qiladi. Tezisda nazariy asoslar, strukturaviy vositalar va tahlil usullari asosida ilgari surilgan yondashuv, tegishli tillar misolida ko'rsatildi. Substantivatsiyaning nazariy asoslarini o'rganish va uni tillararo kontekstda tahlil qilish tilshunoslik fanining rivojlanishiga, tilning ichki tuzilishi va uning ijtimoiy funksiyalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://elar.khmnu.edu.ua/server/api/core/bitstreams/ac7f1ba3-a55d-41e7-97c6-53ca33f0b522/content>
2. Balteiro I. On the Status of Conversion. Atlantis. XXIII (2). 2001. P. 7–29.
3. Doughwaite J. Towards a Linguistic Theory of Foregrounding. Alessandria: Edizioni dell'Orse, 2000. 403 p.
4. J. O'Hara The Women of Madison Ave. February 2, 1962 p.32
5. Jeff Abbot. Fear. 18th Jun 2024. p.402
6. Jovanovic V. On Productivity, Creativity and Restrictions on Word Conversion in English. Fasta Universitatis Series: Linguistics and Literature 2000. № 2 (10). P. 425–436.